



## XALQARO INGLIZ TILI VA UNDAGI SO‘ZLASHUV KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM METODLAR

Ilmiy rahbar: **Gulrux Xasanova**

Samarqand davlat chet tillari dotsenti v.b., PhD

**Erkinova Visola**

SamDCHTI, Ingliz tili I fakulteti talabasi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada hozirgi kundagi xalqaro miqyosda rivojlangan va rivojlanayotgan Ingliz tilini sohalardagi ahamiyati va undagi so‘zlashuv ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim bo‘lgan metodlar, ularni qo‘llash usullari va samaralari haqida so‘z yuritilgan.

**Kalit so‘zlar:** xorijiy til, so‘zlashuv, metod, ko‘nikma, soha, keng muloqot, natija

Mamlakatlar aro munosabatlar, asosan, til aloqa vositasi orqali amalga oshadi. Hozirgi zamonaviy dunyoning xalqaro miqyosida Ingliz tili asosiy va muhim o‘rinni egallab kelmoqda. Shuningdek, har mavjud sohada tilni keng tatbiq qilishning yetakchi omillaridan biri-barcha yo‘nalishdagi kasblarni xalqaro standard darajasiga olib chiqish va tajriba almashishning yuqori suratlarini yaratishdan iboratdir.

Aynan, ko‘plab sohalarning boshlang‘ich qatlamida so‘zlashuv(speaking) o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Masalan, Marketing, Meditsina, Bank-moliya tizimi va IT sohalari o‘zining talab jihatidan ularni inkor qilmaydi. Huddi shuningdek, ijtimoiy qatlam



vakillari ham chet tillariga qiziqishining oshib borishini kasbiy baholash mumkin ekan. Asosan, ta'lim sohasi til bilish darajasini yuqori yo'sinda ishlashiga yetakchi mas'ul hamdir. Shuning uchun, so'nggi vaqtlardagi xorijiy tillarga bo'lgan e'tibor ta'limda o'z aksini topmoqda. Bu borada Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorini ham keltirish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 19-maydagi 312-son qaroriga muvofiq Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan har yili tuman(shahar)dagi maktablarni xorijiy tillarni o'qitish uchun zarur bo'lgan adabiyotlar, asbob-uskunalar, zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash uchun mahalliy budjetlardan 1mlrd so'mdan kam bo'lmagan miqdorda ajratiladigan mablag'larning hisobi hududiy xalq ta'limi boshqarmalarining G'aznachilikdagi alohida ochilgan maxsus hisobvaraqlarida yuritilishi hamda ushbu mablag'lar Agentlik bilan kelishilgan manzilli dasturlar asosida sarflanishi belgilab qo'yilsin.[1]

Bu tadbirlarning asosiy maqsadi ham chet tillarini ommalashtirish va sohalarga maksimal kirib borishini ta'minlashdir. Shu jihatdan ham yuqorida aytilganidek, ingliz tilining muhim hisoblangan so'zlashuv qismidagi ahamiyatli jihatlari va metodlari haqida so'z yuritamiz. Quyida keltirilgan reja asosidagi kunlik tartibni yo'lga qo'yish ayni paytda biz xohlayotgan natijalarga erishishning dastlabki bosqichidir. Keyingi step(qadam) larda rivojlanishi esa kasb egalarining faoliyatlariga bog'liqdir.

- So'zlashuv klublariga a'zo bo'lish
- Watching movies, videos
- Ko'zguga qarab gapirish



Bugunki kunda eng ko‘p o‘rganilayotgan tillardan biri bu – ingliz tili [4;21]. Juda ko‘p ingliz tili o‘rganuvchilarining muammolaridan biri ancha vaqtdan beri ingliz tilini o‘rganishadiyu, lekin hali ham erkin, ravon gapira olishmaydi. Fikrlarini yetkazib berish birmuncha qiyin, huddi o‘zgalar xatolari ustidan tanqid qilayotgandek tuyulaveradi. Ayni 1-usulimiz ya‘ni online yoki offline klublar, davralarni tashkil qilish, yaqin do‘stlar bilan faqat ingliz tilida so‘zlashishni kunlik tartibga aylantirish sizga anchagina yordam bera oladi. Masalan, siz u yerda klub a‘zolari bilan turli mavzularda suhbat qurishingiz, bahs-munozaralarda ishtirok etishingiz, biror mavzu yuzasidan fikrlar bildirishingiz mumkin. Odatda bunday klublar bepul yoki juda ham arzon bo‘ladi. Bu siz uchun yaxshi imkoniyat! U yerda ham ko‘proq bo‘lishga harakat qiling. Qiynalsangiz ham o‘z nuqtai nazariningizni bildirishga urining[2]. Yana shuni aytish mumkinki, online saytlar orqali mahalliy, hatto boshqa millat vakillari bilan ham shunday muhitni yaratish mumkin. Siz avval bilmagan, tanimagan insonlar bilan suhbat o‘zingizga bo‘lgan ishonchni oshiradi, shu bilan birgalikda ular yashaydigan joy haqidagi madaniyatlar, urf-odatlarini bilish hamda fikr almashish sizni taqqoslashlarga majbur qiladi, bir yo‘la muloqot madaniyatingizni ham yaxshilab boradi. Namuna sifatida, Speaking24.com saytiga tashrif buyurishingiz, yoshi, millati, til bilish darajasiga qarab xohlagan odamingizni tanlab, undan skype orqali so‘rov jo‘natishingiz mumkin.

Shuningdek, 2-metodimiz watching(kuzatish) ya‘ni ingliz tilidagi turli videolar, kino va musiqalar tinglash orqali speakingni oshirish metodi. Bu usul bilan ham speaking ko‘nikmasini sezilarli darajada oshirish mumkin. Masalan, birgina kino tomosha qilish sizga quyidagilarni bera oladi; tez tushunish, holatga qarab fikrlay olish, oson talaffuz qila olish, shu bilan birga chet el muhitidagi mindset. Boshqa usullardan farqli sizga beriladigan kunlik vazifalardan chalg‘itadigan sevimli mashg‘ulot ham demakdir. Unda uchraydigan yangi so‘zlar, idiomalar, frazalar speaking uchun eng muhim grammarlardan biri hisoblanadi va siz uni qay holatda ishlatilayotganiga e‘tibor bering hamda o‘zingizda



qo'llashga harakat qiling[5]. Tushunmasangiz ham ko'rishda davom etavering, tugatgach esa u haqidagi fikrlar, voqealar rivoji va xulosalaringizni imkon qadar diktofonga yozib boring. Bo'sh vaqtlaringizda tinglab, hayolingizda gavdalandirasiz va endi o'zingizni anchagina tushungandek his qilasiz. Bu holatni ko'p marta takrorlash esa qulog'ingizni inglizcha muhitga moslab borishiga sabab bo'ladi.

So'nggi ko'zguga qarab gapirish texnikasi biz ayta olmaydigan, hayajonlanadigan va odamlar davrasidagi qo'rquv paydo qiladigan kamchiliklarimizga yordam beradi. Bu usul nafaqat og'zaki nutqingi, balki o'zingizga bo'lgan ishonchni, omma oldida dadil so'zlay olish va suhbatdoshingizni ko'ziga qarab gapira olish qobiliyatlarini ham o'stiradi. Buning uchun, har kuni kamida o'n daqiqa davomida biror bir mavzuda gapirishga harakat qiling. O'sha kungi qiziqarli voqealarni so'zlashingiz, biror yoqtirgan mashg'ulotingiz haqida yoki rejalar umuman olganda odamlar oldida ayta olmaydigan har qanday mavzu haqida so'zlashingiz mumkin [2] Misol o'rnida, tasavvur qilingki, siz chet eldan kelgan turistlarga hamrohlik qilyapsiz. Mamlakatimiz haqidagi ma'lumotlar, obidalar va yo'lingizda uchragan har qanday vaziyatlarni tushuntiryapsiz[3]. Bu holatda ko'proq ravon, aniq va suhbatdoshingizni jalb qila oladigan darajada gapirishga harakat qiling.

Yuqorida keltirilgan metodlarning barchasi albatta kuchli iroda, yetarlicha xohish va kunlik tartibiga amal qilgandagina o'z natijasini ko'rsatadi. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ingliz tili darajamizni oshirgandan keyingi qadam ya'ni o'z kasb mahoratimizga tatbiq qila olish hamda uning rivojlanishida hissamizni keng miqyosda qo'sha olishimiz bizning asl yutug'imiz va soha kelajagining g'alabasidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://lex.uz/uz>
2. <https://hasanboy.uz/speakingni-o-stirish/>



3. Khayrullayevna, K. G. (2021, June). Pragmatic failures in nonverbal communication of representatives of different ethnic groups. In " online-conferences" platform (pp. 100-101).
4. Xasanova G., Abdujalilova S. Til o'rganishda kino filmlarning ahamiyati. Proceedings of International conference on Modern Science and Scientific studies. Paris, France. ISSN:2835-3730. 2024. Econferenceseries.com.
5. Sharipova, Sarvinoz. "The role of coaching technology in the development of creative thinking and abilities of adults in language learning process". Solution of social problems in management and economy 2.13 (2023): 5-12.